

27

Yoshlarning innovatsion, startap va biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun 270 milliondan 540 million so'ngacha kredit ajratiladi.

Kredit muddati:
7 yil

Imtiyoz davri:
3 yil

Kredit stavkasi:
17 foiz

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

32 (16485)
2022-yil, 25-may
chorshanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Mahallada yoshlar yetakchisi
4-5-betlar

Hunardan
zar o'nar

Yoshlar siyosati
5-bet

18 680 yangi ish
o'rni yaratiladi

Ko'zgu
6-bet

"OLX.uz" da aldangan
talabalar



MARKAZIY OSIYO YOSHLAR FORUMI HAMDO'STLIK UCHRASHUVI DAVOM ETADI

batafsil
2-3-betlarda



HAMDO'STLIK UCHRASHUVI DAVOM ETADI

Qardosh xalqlarning do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlashga, ilm-fan hamda milliy qadriyatlar rivojiga bag'ishlangan "Markaziy Osiyo yoshlari forumi" Andijon va Farg'ona viloyatlarida davom etdi.

21-may kuni tojikistonlik yoshlardan iborat delegatsiya Farg'ona viloyatiga yetib keldi. Ular viloyat hokimligi vakillari, Yoshlar ishlari agentligi mas'ullari hamda faol yoshlar tomonidan tantanali kutib olindi. "Tojikiston-O'zbekiston" yoshlar forumining rasmiy ochilish marosimida so'z

olganlar ikki millat o'rtasidagi do'stlik, an'ana va urf-odatlar, doimiy hamkorlik munosabatlari azaldan borligi, bu yoshlar munosabatlarida ham davom etishi kerakligini ta'kidlashdi.

Dastlab forum ishtirokchilari Marg'ilon shahridagi "Hunarmandlar markazi" faoliyati bilan tanishib, o'zbek milliy hunarmandchiligidan bahramand bo'lishdi. Jilvakor va dunyoni o'ziga rom etgan atlas-u adras matolar tarixini tinglashib, ularning tayyorlanish jarayonlarini tomosha qilishdi.



**Gulzamina
BOBOKALONOVA,**
tojikistonlik faol yosh,
Prezident stipendiyasi sohibasi:

– "Hunarmandlar markazi" ga kirib borganimda u yerdagi ranglar jilosi Tojikistonning Xo'jandini eslatdi. Biz Markaziy Osiyo yoshlarini birlashtiradigan umumiy urf-odat, an'analar borligini takror his qildik. O'zbekistonga yana kelishni va yoshlar bilan ko'proq fikr almashishni istayman. 21-may – tavallud kunimni qanday o'tadi deb o'ylayotgan edim, farg'onaliklar bilan birga bu kunni o'z oilam bag'ridagidek nishonladik. Qaynoq mehr uchun sizlarga katta rahmat!


YOSHLAR YETAKCHISI AMALIYOTI TOJIKISTONDA HAM TATBIQ ETILADI

Yoshlar forumi ishtirokchilari Marg'ilon shahridagi "Raqqamli texnologiyalar markazi" da ham bo'lishib, ularga IT sohasi bo'yicha yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar va amalga oshirilgan ishlar xususida ma'lumot berildi.

Mehmonlar Farg'ona shahridagi "Navro'z" mahallasida bo'lib, sport, fan-ta'lim va hunarmandchilikka qaratilgan imkoniyatlardan xabarдор bo'lishdi. Marg'ilon shahridagi "Yoshlar kichik sanoat zonasida" esa har bir tayyorlanayotgan mahsulotni ilk jarayonlaridan tortib bozorgacha bo'lgan holatini kuzatishdi.

Tojikistonlik yoshlar milliy hunarmandchilik markazlarimizdan biri – Rishton tumanida ham bo'lib, milliy kulolchilik mahsulotlari, poyabzal ishlab chiqarish sexlari hamda tikuv fabrikalari bilan tanishdi. Qo'qon shahri tarixi va madaniy-ma'naviy merosi mehmonlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Ikki davlat yoshlari hamdo'stligini mustahkamlash maqsadida interfaol o'yinlar va treninglar tashkil etildi. Bu esa yoshlarning o'zaro fikr almashishi, taklif va g'oyalari bilan o'rtoqlashishiga zamin yaratdi.



**Sherzod
OLIMOV,**
Yoshlar ishlari agentligi
boshqarma boshlig'i:

– "Markaziy Osiyo yoshlar forumi" O'zbekiston va Tojikiston yoshlari hamdo'stligi sifatida Farg'ona viloyatida davom etdi. Asosiy maqsadimiz, forum doirasida har ikki mamlakatda yoshlar siyosati doirasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishish, tajriba almashishdan iborat bo'ldi. Biz, avvalo, mehmonlarimizni yurtimizda olib borilayotgan "mahallabay" ishlash tizimi bilan tanishtirdik. Mahalladagi yoshlar yetakchilarining faoliyati bilan ham yaqindan tanishishdi va bu amaliyotni o'z mamlakatlarda ham tatbiq etishni aytib o'tishdi.

Mehmonlar 23-may Tojikiston Respublikasida Yoshlar kuni ekani va bu forum ular uchun yana bir qutlov bo'lganini alohida e'tirof etishdi.

QIRG'IZISTONLIK YOSHLAR ANDIJONDA

Andijon polkasi, milliy do'ppimiz hamda qar-doshlarimizning milliy bosh kiyimi! 21-23-may kunlari ming nafardan ziyod o'zbekistonlik va qirg'izistonlik yoshlar Bobur yurti – Andijonda jamlandi.

"O'zbekiston-Qirg'iziston yoshlari forumi" vakillari dastlabki uchrashuvdan so'ng Andijon shahridagi "Yoshlar texnopark"i hamda "Ish-ga marhamat" monomarkazida, Shahrixon tu-manidagi "Hunarmandlar markazi"da bo'lib, smart texnologiyalar, yoshlarning kasb-hunar egallashi, bandligi ta'minlanishi uchun yaratil-gan sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar.

Delegatsiya a'zolari yurtimizdagi "mahalla-bay" ishlash tizimi bilan tanishish, mahallalar-da joriy etilgan yoshlar yetakchisi lavozimi va ular tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni ko'zdan kechirish maqsadida Andijon shahrida-gi "Barkamol" mahallasida ham bo'ldi. Mahalla

yoshlar yetakchisi hamda mahalladagi yoshlar bilan qizg'in muloqotlar olib bordilar.

Marhamat tumanidagi "Kelajak nuri" xalq ku-tubxonasi mehmonlarda katta qiziqish uyg'otdi. Bu yerda qirg'izistonlik yoshlar o'zbek adabiyoti haqida savollariga javob oldilar. Mehmonlar tumandagi Erkin Vohidov nomidagi shaxmat maktabi faoliyati bilan tanishishi barobarida maktabning yosh shaxmatchilari bilan dona surishga ham muvaffaq bo'lishdi.

Shoir Muhammad Yusufning uy muzeyida bo'lgan qirg'izistonlik yoshlarga tanti shoirimizning hayoti va ijodi, uning bosib o'tgan umr yo'li haqida ma'lumotlar berilib, shoirning kitoblaridan ulashil-di. Forum qatnashchilari Asaka shahridagi "UzAu-to Motors" avtomobil zavodiga ham sayohat qilib, texnik jarayonlar bilan yaqindan tanishdilar. And-jon shahridagi Prezident maktabi qo'shni davlat yoshlarida katta taassurot qoldirdi.




**Berdali
TO'XTASUNOV,**
Qirg'iziston
delegatsiyasi vakili:

– Biz O'zbekiston yoshlari-ga yaratilgan imkoniyatlardan hayratlandik. Katta-katta zavod-lardagi ishlarni yoshlar, talabalar, bizni tengqurlarimiz bajarayot-ganini ko'rib, juda ham ta'sirlan-dik. Andijonda innovatsiya va tex-nologiyalar ko'pligini ko'rdik. Bu yerdagi texnopark ham katta taas-surot olishimizga sabab bo'ldi. Biz tushundikki, sizlarda ta'lim birinchi o'rinda. Bu yerda o'rgangan taj-ribalarimizni o'z yurtimizda teng-qurlarimizga ulashamiz. Biz juda xursand bo'ldik.

“

MARHAMAT TUMANIDAGI "KELAJAK NURI" XALQ KUTUBXONASI MEHMONLARDA KATTA QIZIQISH UYG'OTDI. BU YERDA QIRG'IZISTONLIK YOSHLAR O'ZBEK ADABIYOTI HAQIDA SAVOLLARIGA JAVOB OLDILAR.



**Dilnoza ABDUHOMIDOVA,
Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,**
"Yoshlar ovozi" muxbirlari



ALISHER SA'DULLAYEV O'ZBEKISTON SHAXMAT FEDERATSIYASI RAISI ETIB SAYLANDI

O'zbekiston Res-publikasi Yoshlar ish-lari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev O'zbekiston shaxmat federatsiyasi raisi etib saylandi.

Necha yilki O'zbekiston shaxmat federatsiyasi atrofidagi gap-so'zlar tuga-maydi, federatsiya faoliyatiga nisbatan noroziliklar muntazam yangrab turadi. Mamlakatimiz nomini dunyoga tanitishga salohiyati bor, ammo bir o'lam to'siqlarga uchrayotgan yosh shaxmatchi o'g'il-qiz-larimiz boshqa davlatlar sharafini himoya qilayot-gani ham bor gap.

Shaxmatning rapid yo'nalishi bo'yicha jahon chempioni bo'lgan Nodirbek Abdusattorovning treneriga hamon ota-onasi o'z cho'ntagidan pul to'lashi, buning uchun davlatdan yoki Shax-mat federatsiyasidan pul ajratilmagani ma'lum bo'lgan edi. Undan oldin esa shaxmat bo'yicha

grossmeyster Gulruxbegim Tohirjonova AQSh-ga ketishiga O'zbekiston shaxmat federatsiya-sining munosabati sabab bo'lganini aytgandi.

Shaxmat federatsiyasi faoliyatini rivojlanti-rishda Alisher Sa'dullayevga omad tilaymiz. Umid qilamizki, Sa'dullayev shaxmatchilar va ularning ota-onalari dardini tinglab, og'irini yengil qiladi, shaxmatni keng ommalashtirish uchun oqilona siyosat olib boradi. Bu borada O'zbekiston yoshlari yetakchisida tajriba ham, imkoniyat ham yetarli. Birgina misol, yoshlar yetakchisi boshchiligida o'tkazilayotgan "Yoshlar ishlari agentligi kubogi" shaxmat turniri ko'plab iqtidorlarni, ayniqsa, olis hududlardagi shax-matchilarni kashf etish va qo'llab-quvvatlashda ayni muddao bo'lyapti.

Alisher Sa'dullayev asosiy lavozimi – Yoshlar ish-lari agentligining direktori vazifasida ham qoladi.

Shahruza SATTOROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri



177

IMKONIYAT

SOLIQ IMTIYOZLARI

Prezidentimizning 2018-yil 14-iyulda-gi "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samarador-ligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"-gi qaroriga ko'ra, aholisi 5 ming kishidan ko'p bo'lmagan Qishloq tumanlarida, sar-taroshxona xizmatlarini, yakka tartibdagi buyurtmalar bo'yicha kiyim tikish, poyabzal ta'mirlash xizmatlarini ko'rsatish hamda jamoat hammomlarini tashkil etgan yakka tartibdagi tadbirkorlar 2023-yil 1-iyulgacha barcha turdagi soliqlarni to'lashdan ozod etiladi:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar har bir yollangan xodimga to'lanadigan qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan ozod etiladi;
- yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik subyektlariga 3 nafar-gacha doimiy ishchilarni yollash, ular bilan mehnat shartnomasi tuzish, shuning-dek, mehnatga layoqatli yoshga to'lgan boshqa yaqin qarindoshlarini, shu jum-ladan, mehnatga layoqatli yoshga to'lgan bolalari va nevaralarining er-xotinlari-ni, mehnatga layoqatli yoshga to'lgan aka-ukalari va opa-singillarini, ularning er-xotinlarini yuridik shaxs tashkil etma-gan holda oilaviy tadbirkorlik subyekti ishtirokchilari sifatida jalb qilish huquqi beriladi;
- birinchi marta mikrokredit olgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uni olgan sanadan boshlab 6 oy mobaynida qat'iy belgilangan soliq to'lashdan ozod etiladi.

Mazkur imtiyozdan foydalanish uchun jismoniy va yuridik shaxslar davlat ro'y-xatidan o'tganlini va qishloq tumanlari hududida faoliyat olib borayotganini tas-diqlovchi hujjatlarni taqdim etishi lozim.

Imtiyozni qo'llash bo'yicha muro-jaatlar "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunida bel-gilangan muddatlarda ko'rib chiqiladi. Mazkur imtiyozlardan foydalanish uchun nomzodlarning yoshi chegaralanmagan.



HUNARDAN ZAR O'NAR

ISHSIZ YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA ANDIJON TAJRIBASI

Iqbol PARDAYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Yurtimizning eng kichik hududi bo'lgan Andijon viloyati o'zining hunarmandchilik, ustoz-shogird an'anasi bilan ajralib turadi. Hudud yoshlarining bandligini ta'minlashda aynan o'sha an'analar qo'l kelmoqda.



Baliqchi tumanidagi "Siza" mahallasi yoshlar yetakchisi Husanboy Abdulhamidovning fikriga ko'ra, mahalla o'zining savatlari bilan dong taratgan. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan ota meros hunar bilan ko'pchilik oilalar yaxshigina daromad topyapti. Teshaboyevlar oilasi ham ana shunday oilalar sirasiga kiradi. Quvonarlisi, Teshaboyevlar mahalla yoshlarining bandligini ta'minlashga ham o'z hissasini qo'shmoqda.



**Shodmonali
TESHABOYEV,
usta-hunarmand:**

— Hunarmandchilik bilan shug'ullanayotganimga 20 yildan oshdi. Bu kasb bizga otameros. Shu paytga qadar mingdan ortiq shogirdlar tayyorladim. Mahalla yoshlarining bandligini ta'minlashga ham o'z hunarim bilan yordam qilyapman. Shogirdlarimning daromad olayotganini eshitsam yoki ko'rsam, xursand bo'laman.



**Husanboy
ABDULHAMIDOV,
Baliqchi tumanidagi "Siza"
mahallasi yoshlar yetakchisi:**

— Mahallamizga yoshlar yetakchisi bo'lib saylanganimdan keyin xatlov natijasida 54 nafar ishsiz yosh borligini aniqladim. Ularning qiziqishidan kelib chiqib 9 nafarini savatchilik bilan shug'ullanishga jalb qildim. Hozir ularning barchasi Teshaboyevlar oilasida ham hunar o'rganib, ham daromad topmoqda.



Viloyatning Paxtaobod tumanida ham hunarmandchilik yoshlarning bandligini ta'minlashda asosiy yo'nalishlardan biri deyish mumkin. Hududning "Yuqori" mahallasi yoshlarining hunarmandchilikka bo'lgan qiziqishi baland. Mahalladagi yoshlar yetakchisi yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib ularning bandligini ta'minlamoqda.



Javohirbek ODILOV,


**Paxtaobod tumanidagi "Yuqori"
mahallasi yoshlar yetakchisi:**

— Ish boshlaganimda yoshlar o'rtasida ishsizlik muammasi meni o'ylantira boshladi. Ehtiyjmand yoshlar ham tez-tez moddiy yordam so'rab chiqardi. Bunday paytda moddiy yordam vaqtinchalik ekanligi, shunday chora topishim kerakki, yoshlar o'z mehnatlari orqali moddiy ehtiyojlarini qondira oladigan bo'lishi kerakligi haqida ko'p o'yladim. Keyin yoshlarni ustoz-shogird an'anasi bo'yicha hunarmandchilik sohasiga yo'naltirishga qaror qildim.

Bizning mahallamiz kulolchiligi bilan mashhur. Yoshlarni mahallamizda tandirchilik bilan shug'ullanib kelayotgan yoshi ulug' ustozlarga biriktirib berish orqali vaqtini mazmunli tashkil etdim.

65 yoshdagi Hoshimjon ota Yunusov o'zining tandirchilik hunarini 100 dan ortiq yoshlarga beminnat o'rgatib kelmoqda. Ko'pchilik shogirdlari o'z ishini mustaqil davom ettirishni boshladi. Tandırchilik va hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va yoshlarimizga qulay sharoitlar yaratish maqsadida mahallamiz raisi va hokim yordamchisi bilan hamkorlikda hududimizdagi bo'sh turgan yerlardan "Sanoat zonası" yaratish ustida ish olib bormoqdamiz.

Viloyatning yana bir maskani — Jalaquduq tumani "Qo'rtqi" mahallasida ham yoshlar hunar o'rganib, daromad topmoqda. Mahalladagi xatlov natijasida aniqlangan 25 nafar ishsiz yoshning barchasi aynan hunar o'rganish bilan band qilingan.





Odina NABIYEVA,
Jalaquduq tumanidagi "Qo'rtiq" mahallasi
yoshlar yetakchisi:

– Xatlov paytida ota-onasi Rossiyaga ishlash maqsadida ketgan, o'zi esa akasi bilan yolg'iz qolgan yoshimiz bilan suhbat qildim. Uning qaysi sohada ishlay olishini so'radim. U esa non mahsuloti ishlab chiqarish sexi ochishi uchun imtiyozli kredit olish istagini bildirdi. Sex ishga tushsa, 3 ta ish o'rnini yaralishini aytdi. Bu taklifni ma'qullab, unga kredit ajratadigan bo'ldik. Hozirda mahallamizning 3 nafar ishsiz yoshi shu yerda mehnat qilib, daromad olmoqda.

Mahallamizda yangidan ishga tushgan tikuvchilik sexi qolgan 22 nafar ishsiz yoshning bandligini ta'minlamoqda. Aslida sexni ham shu shart asosida yo'lga qo'ydik. Faoliyatimning ilk kunlarida Gulruxsor Zulunova tikuvchilik sexi ochish uchun kredit olish istagini bildirib, mahallaning barcha ishsiz yoshlarini ishga olib, ularga tikuvchilik hunarini o'rgatishga va'da bergandi. Mahallamizdagi bo'sh turgan bino va 33 million so'mlik kreditni Gulruxsor uchun ajratib berdik. Va'daga ko'ra, barcha ishsiz yoshlar yangi tikuv sexi ish boshladi.



Viloyatdagi boshqa bir mahalla yetakchilari bilan suhbat qilganimizda ular ham hech bo'lmaganda 3 nafar yoshning bandligini hunar o'rgatib ta'minlayotganini aytdi. Demak, Andijonda hunarmandchilik yoshlarning ishsizligiga yaxshigina yechim bo'la oladi. Shu ma'noda bu yo'nalishni Andijon tajribasi deyishimiz ham mumkin.

18 680

YANGI ISH O'RNINI YARATILADI



Baxtiyor MIRZATOV,
Namangan viloyati Yoshlar ishlari agentligi
boshqarmasi boshlig'i



Yoshlar bilan ishlashning yaxlit vertikal "mahalla – tuman – viloyat – respublika" boshqaruv tizimi o'zini oqloyaptimi? Mahallalarda yetakchilikka nomzodlarning yoshi nechada bo'lishi kerak? Yetakchi bo'lish uchun oliy ma'lumot kerakmi? Necha yillik ish tajribasi lozim? Ushbu lavozimda xotin-qizlar salmog'i nechog'li? Ushbu savollarga javob berish maqsadida mazkur tizim orqali yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar, ochilayotgan imkoniyatlar eshigini birgina Namangan hududi misolida keltirib o'tsak.

Viloyatda 4 ming nafar yoshlar bilan uchrashib, ular orasidan 780 ta mahallaga munosib nomzodlar tanlab olindi. Yetakchilarning o'rtacha yoshi 24-30 yoshni, o'rtacha ish tajribasi 1 yildan 5 yilgachani tashkil etadi. Ularning 501 nafarining (64 foiz) ma'lumoti oliy, 517 nafari (66 foiz) harbiy xizmatni o'tagan bo'lib, jami yetakchilarning 11 foizi (87 nafari) xotin-qizlardan iborat. Ularga zarur sharoitlar yaratish maqsadida 780 ta zamonaviy planshet, kompyuter jamlanmasi, mebel jihozlari (stol va stul) bilan ta'minlandi. Viloyatimizda yetakchilarga zarur sharoitlar yaratish maqsadida 780 ta zamonaviy planshet, kompyuter jamlanmasi, mebel jihozlari (stol va stul) ajratildi.

Eng muhim vazifa, avvalo, yoshlar bandligini ta'minlash, munosib daromad olishi uchun ularga sharoit yaratib berish. Bu boradagi eng katta imkoniyat va zaxiramiz bu – tadbirkorlik, ayniqsa, kichik va o'rta biznesdir. Shu borada "Sanoat zonalarini" uchun jami 137,1 gektar yer maydonlari ajratilib, hozirga qadar qiymati 1,5 trillion so'mlik 439 ta investisiya loyihalari joylashtirildi. Loyihalar amalga oshirilishi natijasida 18 680 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi. Ushbu korxonalar tomonidan 30,7 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Viloyatning chekka tumanlarida istiqomat qilayotgan ishsiz hamda ro'yxatda turuvchi yoshlar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi hozirdagi Chaqiriluvchilarni harbiy-tex-

nika mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlash markazidagi o'quv-yig'in mashg'ulotlariga jalb qilindi. Ularni kasb-hunarga o'rgatish maqsadida 12 ta Monomarkaz tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunga qadar ular tomonidan 3 266 nafar yoshlarga kasb-hunar o'rgatildi.

Namangan viloyatida amalga oshirilayotgan o'ziga xos amaliy ishlarining biri shuki, xorijiy tillarni o'qitish sifatini yaxshilash bo'yicha ta'lim sifati past bo'lgan 34 ta (tuman markazlaridan 27 ta, olis hududlardan 7 ta) maktab o'quv mashg'ulotlari olib borish uchun tanlab olindi. Ushbu o'quv mashg'ulotlariga 34 ta maktabga hududdagi 109 ta maktablarning 680 nafar "Temir daftar", "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari"ga kirgan va kam ta'minlangan oila farzandlari jalb etildi.

2022-yilda viloyatning barcha tumanlariga 7 milliard so'm mablag' ajratish orqali logistika, dizayn va kopirayter xizmatlarini ko'rsatuvchi "Masofaviy xizmatlarni ko'rsatish markazlari" (BPO) tashkil etilib, 280 nafar yoshni ish bilan ta'minlashni maqsad qilganmiz.

Viloyatning chekka tumanlarida istiqomat qilayotgan tarbiyasi og'ir, ishsiz hamda ro'yxatda turuvchi yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida viloyatning harbiy qismlarida 10 ta o'quv-yig'in mashg'ulotlariga 1 400 nafar yoshlarni jalb etish ham rejalarimizda bor.



“SANOAT ZONALARI”
UCHUN JAMI 137,1 GEKTAR
YER MAYDONLARI AJRATILIB,
HOZIRGA QADAR QIYMATI
1,5 TRILLION SO'MLIK 439 TA
INVESTISIYA LOYIHALAR
JOYLASHTIRILDI.

“OLX.UZ”DA ALDANGAN TALABALAR

Shahribonu RAHMATOVA

Hozir kelgan balo-qazo talabaga uradigan, it ham talabani qopadigan bo'lib qolgan. Qayerga qarasangiz, bir talay muammosi bor, moliyaviy tomondan qiynalgan yoki ko'ch-ko'ronini olib, u yudan bu uyga ko'chadigan talabaga ko'zingiz tushadi. Ayniqsa, poytaxtda.

Toshkentda talabalar ko'paygani sari yangi muammolar ham ko'paymoqda. Ularni doimiy qiynaydigan masalalardan biri bu – turar joy muammosi. Afsuski, uy ijarasi sabab paydo bo'layotgan holatlar talabani bir dardini o'ntaga oshiryapti.

Yaqinda ijarada yashaydigan uyimning egasi xonadonini boshqa odamga sotib yubordi. Yangi egalar tezroq chiqib ketishimizni ko'zlari to'rt bo'lib kutmoqda. Biz esa zudlik bilan boshqa uy topishimiz kerak. Birimiz telegram kanallaridan, birimiz tanishlardan, birimiz kursdoshlardan, yana birimiz “olx.uz” saytidan uy izlaymiz.



Baxtimizga “olx.uz”dan biz yashayotgan Yunusobod tumanining o'zidan sharoitlari yaxshi, narxi ham bizbop uy chiqib qoldi. Uy egasi bilan qo'ng'iroqlashdik, telegram orqali xabarlashdik. Harbiy ekan, muomalasi ham joyida, uyiga ham harbiyni ijaraga qo'yimoqchi ekan,

ammo yaxshi joyda o'qishimizni bilib, rozi bo'ldi. Najotkorimiz xizmat safari bilan Namangan viloyatiga ketgani sabab, uy kalitini taksi orqali berib yuboradigan bo'ldi. Ishonchli xaridor ekanimizni isbotlashimiz uchun uy to'lovining 50 AQSh dollari qismini oldindan

berishimizni so'radi. To'lovni qildik, kechga qadar yangi koshonamizga o'tadigan bo'ldik. Ammo...

Qosh qoraydi, kalitdan esa darak yo'q. Boshqa xonadoshimizning telegramidan xabar yozib ko'rdik va unga ham xuddi oldingisidek, “avval pul, so'ng kalit” mazmunidagi xabarlar keldi. Aldanganimizni tushundik.

Shundan so'ng meni har xil savollar qurshab oldi. Axir e'lonni sun'iy ravishda a'zolari ko'paytirilgan telegram kanallari yoki ijtimoiy tarmoqlardan emas, yurtimizda eng ko'p foydalaniladigan “olx.uz” sayti orqali ko'rgan edik. U yerda e'lon qoldirish uchun odamlar raqami va o'zi haqidagi ma'lumotlarni kiritadi. Lekin shunday bo'lsa ham bema'lol o'g'irlik qilyapti.

Boshimdan o'tgan voqea haqida boshqalarga aytib bergach bildimki, bunday holatlar avj olganiga ancha bo'libdi. “Olx.uz”dan uy topaman deb turli aldovlarga uchragan talabalar ham talaygina ekan.

Diyoraxon NABIJO'NOVA



1 MILLIONGA CHUV TUSHIRDI

5 oy avval yashab turgan xonadonimizdan chiqib ketishimiz zarur bo'lib qoldi. 5 talaba qiz 3 kun davomida tinimsiz e'lonlar orasidan yashashga joy izladik. “Shahriston” metro bekati yaqinidan ikki xonali uy chiqdi. Telefon qildik. Uyning egasi “kvartira” so'rab ko'pchilik telefon qilayotganligini, oldindan to'lov qilinmasa, boshqalarga berib yuborishini ta'kidladi. Uydin quruq qolmaslik uchun plastigiga 1 million so'm o'tkazib berdik. Pulni qabul qilganidan keyin viloyatda ekanligi, kechki payt Toshkentga kelib, kalitni berishini aytdi. Kechga tomon qo'ng'irog'imizga javob bermadi. Shu bo'yicha uni topa olmadik. Bizni aldab ketdi. Miiltsiyaga xabar berdik. Bizda uning telegram akkaunti, ID, telefon va plastik karta raqami bor edi. Ammo ishimiz 5 oy o'tgan bo'lsa ham, ijobiy hal etilganicha yo'q, firibgar topilmadi.

Dostonbek BAXTIYORZODA



UYNING KALITI BOR-U, O'ZI YO'Q

Noyabr oyida ko'chada qoldik. Qidirar-qidirar bir uy topdik. Ta'rifi eshitib, xursand bo'ldik – bizga juda qulay, qolaversa, universitetga kelib-ketish uchun ham o'ng'ay. Uy “makler”ning qo'lidagi ekan. U bilan ko'rishdik. Uchrashgan joyimizda bir million so'm pul berdik. Aytilgan uyning tagidamiz, xonadon raqami ham ma'lum qilingan. Uyning kalitini ham berdi. Uy egalari chiqib ketsin, kiramiz, dedi. So'ng mashinasida hujjatlari qolganini bahona qilib ketdi. Shundan so'ng uni ko'rmadik. Aytilgan uyda esa bir oila tinch-totuv yashayotganiga guvoh bo'ldik. Boshni changallaganicha qolaverdik. Uning ustidan IIBga shikoyat qildik. Ammo shikoyatimiz ko'rib chiqilmadi, o'sha qallob ham topilmadi. Kim biladi, yana qancha odamning rizqini qiyib, “uxlatib” yuribdi, bu yog'i qorongi.

Maftuna ABDUKARIMOVA



RASM ORQALI PUL ISHLAYDIGAN “MAKLERLAR”

“Olx”da “Xalqlar do'stligi” tomonlardan 250 AQSh dollariga yaxshi uy topdik, dallol bilan ko'rishdik (rus ekan), gaplashdik. “Maklerskiy” uchun 600 ming so'mni oldindan oldi. Ertasi kuni “makler” uyning egasi Buxoroga ketib qolgani va borib kalitni olib kelishini aytdi. So'ng qo'ng'iroq qilib, “uyning egasiga pul zarur ekan, hamma pulni o'tkazib bering” dedi. Qo'yarda-qo'ymay so'rayvergani uchun yana 50 dollar jo'natdik. Oradan 2 kun o'tib dallol telefon orqali ish hal bo'lmagani, pulimizni qaytarib berishini aytdi va 400 ming so'm tashlab berdi. Shu bilan uni topa olmadik, qolgan pullarni ham bermadi. Biz ko'chib o'tmoqchi bo'lgan uyning rasmi bir telegram kanalida boshqa manzil va boshqa narx bilan joylashtirilganini ko'rdik.

Jahongir ABDULLAYEV



1 UYNI 5 TA ODAMGA PULLAGAN “UDDABURON”

2019-yilning oktabr oyida Yunusobod tumanidan 200 AQSh dollariga ijara uy oldik. “Kvartira”ga kelsak, ikkita bola bor, kimsizlar desak, “ijarachimiz, bugun keldik”, deyishdi, hayron bo'ldik. Gaplashib tursak, eshik sharq-shurq qilib yana 3 ta bola kirib keldi. Nimalar bo'layotganini tushunishga harakat qilib turgan joyimizda safimizga 1 oila ham qo'shildi, keyin yana 3 ta bola. Bizga ijaraga bergan odamning o'zi ham uyni “arenda”ga olgan ekan. 1 uyning kalitini 5 ta xaridorga topshirgan. So'ng mahalla noziriga bordik, uyning haqiqiy egasini chaqirishdi. Unda firibgarning pasporti bor ekan, shunday qilib pulni qaytarib olganmiz.

Talaba zoti musofir bo'ladi, uyidan, yaqinlaridan yiroqda yashaydi. U har dam qo'llab-quvvatlashga tashna bo'ladi. Bejiz ko'pchilik “talaba ekansa, yordam bersam, savob bo'ladi” deyishmaydi. Ammo ko'ryapsizki, talabani soddaligi va chorasizligi ortidan mo'maygina pul topayotgan, topganda ham harom pul topayotgan insonlar talaygina.

Poytaxtda shundoq ham ijara uylar juda qimmat. Ko'pchilik yashab, pulni o'rtada bo'laman desangiz, odam soniga ham me'yor qo'yib berishadi. Bu yoqda firibgarlar soni ortib boryapti. Yuqoridagi vaziyatlar yuzasidan IIBga murojaat qilib, pulni qaytarib olgan talaba yoki qilmishiga yarasha jazosini olgan qallob kam. “Talabalik oltin davrim” deyilganda xuddi oltin kabi qimmat uylar va zanglagan oltin singari ko'ngilsiz voqealar yodimga tushadigan bo'lib qoldi.

Mashhura NASRIDINOVA

KICHIK VILOYAT MARKAZIDA

HAR QADAMDA AROQ-VINO, BITTA KITOB DO'KONI BOR...

Bozorga tushdim. Navbat suv olishga keldi. Suv do'konlari qatoriga qarab yurdim.

Ammo u yerdagi ichkilikbozlikni ko'rib, dilim xira bo'ldi. Qay do'konga bosh suqishni ham bilmay qoldim. Hammasida qo'lga shisha ko'targan, piyola ushlab tilak aytishga shaylangan erkaklar. Qator oxiridagi do'kon eshigi oldida bir ayol o'tirganini ko'rib, shundan olaman, deb o'sha tomonga yurdim. Ammo yuqoridagi holat bu yerda ham davom etayotgan edi. Illojsiz o'sha do'kondan oldim.

Savdoni qilib qaytarkanman, faqat bir narsani o'yladim: musulmonman degan insonlar, qo'pol qilib aytganda "shaytonning suvini" sotishdan boshqa biznes qilishsa bo'lmasmikan yoki "daromadi ko'proq soha, bu dunyomizda soqqani qilib olaylik", deb o'ylasharmikan?! Afsuski, taksida ham 18-20 yosh yigitning spirtli ichimlik ichganiga guvoh bo'ldim...

Bugun ota-onalar ishlashim, pul topib farzandimni ta'minlashim kerak deb ba'zi narsalarni boy berib qo'ymayaptimikan?! Hayot faqat moddiyatdan iborat emas-ku! Ota-onalar hozir hech kimdan kam qilganim yo'q degan farzandi spirtli ichimliklar, turli dorilarga qiziqib ko'rishi mumkinligini o'ylab ko'rdimikan? 20 yoshidan ichkilikka berilgan yigitdan qanday oila boshligi chiqarkan, qanday farzand dunyoga kelarkan?!

Yuqorida tasvirlangan joy bir kichik viloyat markazining bozorчасi, u yerda bitta kitob do'koni bor. O'quv qurollari sotadiganlar bo'lishi mumkin, ammo kitob, ya'ni badiiy, ilmiy asarlar sotadigani yagona.

Endi jamiyatning ma'naviyati qay darajada ekanligi haqidagi savolga javob topishni o'zingizga qo'yib beray. Poytaxt ham bundan farqli emas. Odam gav-


jum bozorlarda ikki qadamning birida "spirtli ichimliklar", "Vino-Vodka" degan yozuvlarga ko'zingiz tushadi. Ammo "Kitoblar" degan yozuv kam uchraydi.

Yaqinda "Agar o'zbeklar kitob o'qishga ham oshga kelgandek to'planib kelishganda, bizdan ma'naviyatli-roq xalq bo'lmas edi" mazmunidagi gapni o'qigan edim.

Ijtimoiy tarmoqlarda ma'naviyat deb bong uramizda, afsuski, o'zimizning yonimizdagi holatlarga befarqlik qilamiz. Kimdir ro'mol yoki soqol mavzusida fikr bildirib qolsa, gapirganiga pushaymon qildiramiz-u, yoshlarni ichkilikka o'rgatmaslik kerakligi haqida birorta tuzukroq so'z aytmaymiz. Instagram, Tik-tokda har xil bema'ni qiliqlar qilib, "kalyan" chekib video olayotganlarni layk bilan siylaymiz-u, o'zimizcha, nonini topyapti, haloli bo'lsin, deymiz. Agar o'sha qizlar yoki yigitlar o'rnida sizning farzandingiz, singlingiz, opangiz, akangiz yoki ukangiz bo'lsin-chi, qanday chora ko'rar ekansiz?!

Bir ustozim "San'at va jurnalistika sohasida hech qachon tanlov imkoniyatini tomoshabinga qo'yib bema, agar ular xohlagan narsani qilaversang, ayniqsa, hozirgi zamonda sen ham saviyasiz narsa qilishingga to'g'ri keladi" degan edi. Kitob o'qimaydigan xalq ana shunday saviyasiz narsalarni qabul qiladi, undan ortig'ini esa tomosha qilmaydi.


Yaqinda "Million" jamoasi konsertida Navoiy, Beruniy, Fitrat, Usmon Nosir kabi siymolarning suratini ko'rsatib "Hozir biz bu insonlar bilan g'ururlanib, kerilib yuribmiz. Yana bir asrdan keyin mana shu yilda yashagan mana bu inson bor, deb kimni ayta olamiz?" deydi, so'ngra ekranda yuqoridagi siymolar o'rnida yoshlarning sevimli "blogeri", "san'atkor"larini ko'rsatdi. Aslida kulgi ostiga olingan oddiygina narsada juda katta haqiqat bor.



TIL BILIMI

Orif TOLIB

GRADUS BELGISIDAN OLDIN BO'SH JOY KERAKMI YOKI...



Bu belgi turli adabiyotlar va ommaviy axborot vositalarida xato yozilganiga tez-tez guvoh bo'lish mumkin. Aslida qanday yozish kerak?

Gradus belgisi, asosan, burchak yoki haroratni ifodalash uchun ishlatiladi. Agar shunchaki belgining o'zi qo'llangan bo'lsa, raqamdan keyin hech qanday bo'sh joy yoziladi. Agar o'lcham birligi ham ko'rsatilgan bo'lsa, raqamdan keyin bitta bo'sh joy tashlanadi. Raqam va birlik har xil satrga tushib qolmasligi uchun raqamdan keyin ajralmas probeldan foydalanish kerak:

- 7° burchak;
- 45° dan 90° gacha burchakda;
- Harorat ertalab +20 °C edi, tushga borib +40° gacha ko'tarildi;
- Iyul oyida eng yuqori harorat 47-49 °C ga yetdi;
- 10 gradusdan 20 gradusgacha iliq;
- 10-20 °C atrofida iliq.

Gradus daraja so'zi bilan ham ifodalanadi. Lekin maxsus adabiyotlarda gradus so'zidan foydalanish kerak.

MAKTABIMNING OHANRABOSI

Men Yashnobod tumanidagi 230-maktabning 8-sinfini tamomlamoqdaman. Bu dargoh mening ikkinchi uyim. Har tong yuz-qo'lminni yuvib, nonushta qilgach, sumkamni ko'tarib shu dargohga otlaman.

Maktabimning shu qadar ohanrabosi borki, o'ziga tortadi va sehlrab qo'yadi. Darvozadan kirishingiz bilan yal-yal ochilib turgan atirgul, archa va boshqa daraxtlarga ko'zingiz tushadi. Har yili maktab hududini obodonlashtirish uchun sinflarga yer bo'lib beriladi. Men 4-sinfligimda ekan nihol daraxtga aylangan. U menga jilmayib qarab turgandek bo'ladi.

Sinfxonaga shoshilamiz. Deraza, parta, doska, shkaf va devorga osilgan plakat, portretlar bizni go'yoki quchoq ochib qarshi oladi. Menga eng yoqqani tarix xonasi. Fan asoslarini ongimizga singdirayotgan muallimlarimdan minnatdorman. Men ularning

darslarida uzoq o'tmishga sayohat qilib, buyuk ajdodlarimiz bosib o'tgan yo'llardan yurgandek bo'laman.

Ustozlarimdan odob-axloq mezonlarini egallashda mutolaning ahamiyati, obrazlar taqdiridan xulosa chiqarish haqida ko'p eshitganman. Adabiyot darsligiga kiritilmagan qanchadan-qancha o'zbek va chet el yozuvchi-shoirlarining asarlarini o'qib chiqqanman. Maktabimizda ziyo taralib turadigan xona bor. Bu - kutubxona. Javonlardagi durdona asarlar men kabi o'quvchilarni o'ziga chorlaydi. Men bu kitoblarning aksariyatini o'qiganman. Yangi asarlar kelishi bilan olib o'qiyman. So'nggi oylarda Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanlarini mutolaa qildim.

Mana, o'quv yili nihoyasiga yetdi. Keyingi o'quv yilida 9-sinfga chiqqanman. Ungacha tanlagan adabiyotlarimni o'qib chiqqim kerak.



Gulsara RUSTAMOVA,
Yashnobod tumanidagi
230-maktabning 8-sinf o'quvchisi

“YOSH KITOBXON”

tanlovi
15-19 yosh toifasi g'oliblari:



2017-YIL

Shomurodova Mohiniso Shavkat qizi,
“Zulfiya” nomidagi Davlat mukofoti sovrindori.
Samarqand viloyati Narpay tumani
“Nog'oraxona” mahallasi



2018-YIL

Kokanova Nursulu Jenisbay qizi,
Qoraqalpog'iston Respublikasi Kegeyli tumani
“Madaniyat” mahallasi



2019-YIL

Karimbayeva Shahzoda Kamoliddin qizi,
“Zulfiya” nomidagi Davlat mukofoti sovrindori.
Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani
“Sharof Rashidov” mahallasi



2020-YIL

Umarova Maftuna Sayidmurod qizi,
Toshkent shahri Sergeli tumani “Qipchoq” mahallasi



2021-YIL

Hayitboyev Yorqinjon O'rmonali o'g'li,
Sirdaryo viloyati Mirzabod tumani “Mirzo
Ulug'bek” mahallasi



MATONATLI KITOBXON:

Qutlimurodov Umidjon Qadam o'g'li,
Xorazm viloyati

Ushbu yosh ko'zi o'ziga bo'lishiga qaramasdan
tanlovning 2017-yilgi mavsum 15-19 yosh toifasi
respublika bosqichida ishtirok etib, faxrli
2-o'rinni qo'lga kiritgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

15-19 yosh toifasi uchun

T/r	Kitob nomi	Muallifi
1.	“Sarvinoz” dostoni (aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li)	Xalq og'zaki ijodi
2.	“Rustamxon” dostoni (aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li)	Xalq og'zaki ijodi
3.	“Nurali” dostoni (aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li)	Xalq og'zaki ijodi
4.	“Mantiq ut-tayr” (nasriy bayoni)	Fariduddin Attor
5.	“Yulduzli tunlar”	Pirimaql Qodiriy
6.	“Mehrobdan chayon”	Abdulla Qodiriy
7.	“Turkiy guliston yohud axloq”	Abdulla Avloniy
8.	“Oltin zanglamas”	Shuhrat
9.	“Ot kishnagan oqshom”	Tog'ay Murod
10.	“Nur borki, soya bor”	O'tkir Hoshimov
11.	“Sudxo'ning o'limi”	Sadriiddin Ayniy
12.	“Yodgor” (qissa)	G'afur G'ulom
13.	“Maymun yetaklagan odam”	Nazar Eshonqul
14.	“Odamlardan tinglab hikoya”	Hayriiddin Sultonov
15.	“Bolalik va o'smirlik ko'chalari”	Erkin Malik
16.	“Turkiston qayg'usi”	Alixonto'ra Sog'uniy
17.	“Otamdan qolgan dalalar”	Tog'ay Murod
18.	“Alisher Navoiy” (roman)	Isajon Sulton
19.	“Sohilsiz dengiz”	Ahmad Muhammad Tursun
20.	“Mashaqqatlar osha yulduzlar sari”	Abduqayum Yo'ldoshev
21.	“Hind sayyohi”	Fitrat
22.	“O'n sakkizga kirmagan kim bor?”	Shukur Xolmirmirzayev
23.	“Quyosh hali botmagan”	Luqmon Bo'rixon
24.	“Makorim ul-axloq”	Xondamir
25.	“Qo'rqma”	Jalvon Javliyev
26.	“Buyuk qushlar” (she'rlar)	Halima Xudoyberdieva
27.	“Yillar armoni” (she'rlar)	Abdulla Oripov
28.	“Ulug'bek xazinasi”	Odil Yoqubov
29.	“Tabassum”	Erkin Vohidov
30.	“Ro'yo yoxud Gulistonga safar”	Ahmad A'zam
31.	“Pahlavon Muhammad”	Asad Dilmurod
32.	“Pakananing oshiq ko'ngli” (qissa)	Erkin A'zam
33.	“Turon malikasi”	Mirmuhsin
34.	“Oqim” (qissa)	Nosir Fozilov
35.	“Puankare” (hikoya)	Abduqayum Yo'ldoshev
36.	“Spitamen”	Maqsud Qoriyev
37.	“Gul bir yon, chaman bir yon”	To'ra Sulaymon
38.	“Sahar vaqti yurak yig'lar” (she'rlar)	A'zam O'ktam
39.	“Amfibiya odam” (roman)	Aleksandr Belyaev
40.	“Javzo tashrihi” (she'rlar)	Matnazar Abdulhakim
41.	“Abay” (roman)	Muxtor Avezov
42.	“Abadiyat qonuni” (roman)	Nodar Dumbadze
43.	“Hojimurod”	Lev Tolstoy
44.	“Dashti qipchoq lochini yoxud Shayboniyxon qissasi”	Sa'dulla Siyoyev
45.	“Mening Dog'istonim”	Rasul Hamzatov
46.	“Javohir” (qissa)	Jon Steynbek
47.	“Chol va dengiz”	Ernest Xemingvay
48.	“Zamonamiz qahramoni”	Mixail Lermontov
49.	“It'yurak” (qissa)	Mixail Bulgakov
50.	“Aqchagul”	M.Nizanov
51.	“Jaloliddin Rumiy”	Radiy Fish
52.	“Chingachguk fojiasi”	Fenimar Kuper
53.	“Boshsiz chavondoz”	Tommas Mayn Rid
54.	“Dengiz shunqori”	Jeyms Oldrij
Ilmiy-ommabop adabiyotlar		
55.	“Yozuvlar o'tmish sirlari shohidi”	Viktor Drachuk
56.	“Qiziqarli bilimlar olamida”	Qodir To'rayev, Sattor Burxonov, M.Zokirova
57.	“G'aroyib olam”	A.Sultonov
58.	“Otam haqida”	Habibulla Qodiriy
59.	“So'z latofati”	Erkin Vohidov
Nashrlar		
60.	“Yoshlik” jurnali (2022-yil sonlari)	Adabiy-ijtimoiy jurnal

Siz ham tengdoshlaringiz kabi “Spark” avtomobilini qo'lga kiritishni xohlasangiz, telegramda quyidagi manzilda ro'yxatdan o'ting:

@yoshkitobxon_bot

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
**Hamza
ABDULLAYEV**

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
**Sardor
SA'DULLAYEV**

Musahhihlar:
**Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuatchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-16, (7) 236-79-95.

“Sharaq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma tabaq. Ko'xona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekstar: 203, 3205. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-555, Adadi – 10588. Bosishga topshirish vaqti – 21.00, Topshirildi – 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6